

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING PROFILAKTIK HISOBDAGI SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI

Vahobjonov Dilmurod Dilshodovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati
kafedrasi o'qituvchisi.*

Diniqulov Salohiddin Shavkat o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 318 guruh kursanti.

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari har tomonlama tahlil qilingan. Xususan, huquqbuzarliklarni oldini olish tizimida profilaktika inspektorlarining o'rni va vazifalari, profilaktik hisobdagi shaxslar bilan ishlashning huquqiy mexanizmlari hamda mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, amaldagi qonunchilikni qo'llash jarayonida uchrayotgan ayrim muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada profilaktik ishlarni tashkil etishda individual yondashuv, qonuniylik va inson huquqlarini ta'minlash tamoyillarining ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *profilaktika inspektori, profilaktik hisob, huquqbuzarliklarni oldini olish, tashkiliy-huquqiy asoslar, individual profilaktika, jamoat xavfsizligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni muhofaza qilish organlari.*

Jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu jihatdan, profilaktika inspektorlarining faoliyati, ayniqsa profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan olib boriladigan maqsadli va tizimli ishlar huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyatning samaradorligi esa, avvalo, uning tashkiliy-huquqiy asoslarining mustahkamligi, aniq huquqiy tartibga solinganligi va amaliyotda to'g'ri qo'llanilishi bilan uzviy bog'liqdir.

Bugungi kunda profilaktik hisobdagi shaxslar bilan ishlash masalasi faqat huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati doirasida emas, balki ijtimoiy hamkorlik, tarbiyaviy ta'sir choralari hamda individual profilaktika mexanizmlari bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda.

Profilaktika inspektorlari tomonidan ushbu toifadagi shaxslar bilan ishlashda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklariga hurmat, individual yondashuv va profilaktikaning ustuvorligi kabi tamoyillarga amal qilinishi zarur.

Shu bois, mazkur faoliyatning tashkiliy-huquqiy jihatlarini ilmiy-nazariy tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyamizning 13-moddasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Mazkur ulkan va sharaflil vazifalarni ta'minlash, boshqa davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari qatori huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ham asosiy vazifasidir.

Konstitutsiyaning 146-moddasida, O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda profilaktika inspektorlari va probatsiya xizmati o'zaro hamkorlikda muhim rol o'ynaydi. 2014 yil 14 mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun ushbu tuzilmalarning vazifalari va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni belgilab berdi. Ushbu maqola profilaktika inspektorlari va probatsiya xizmatining hamkorligining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni huquqbuzarliklarni oldini olish sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asosini belgilab beruvchi muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur Qonun profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish, ushbu jarayonning huquqiy chegaralari va amalga oshirish mexanizmlarini aniq belgilab berishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy prinsiplari, sub'ektlari va shakllari belgilangan bo'lib, profilaktika inspektorlari ushbu tizimning asosiy sub'ektlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, Qonunda yakka tartibdagi profilaktika, maxsus profilaktika hamda umumiy profilaktika choralari tushunchalari mustahkamlangan bo'lib, profilaktik hisobdagi shaxslar bilan ishlash aynan yakka tartibdagi profilaktika doirasida amalga oshirilishi huquqiy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, mazkur Qonunda profilaktik hisob yuritishning huquqiy asoslari, profilaktik ta'sir choralarini qo'llash tartibi hamda profilaktika sub'ektlarining o'zaro hamkorlik mexanizmi belgilab qo'yilgan. Bu esa profilaktika inspektorlariga profilaktik hisobdagi shaxslarni nazorat qilish, ular bilan tarbiyaviy suhbatlar olib borish, ijtimoiy moslashuvga ko'maklashish va huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni qonuniy asosda amalga oshirish imkonini beradi.

Qonunning yana bir muhim jihati shundaki, unda profilaktik faoliyatni amalga oshirishda inson huquq va erkinliklariga rioya qilish, qonuniylik, adolat va individual yondashuv tamoyillariga qat'iy amal qilish talab etilgan. Bu esa profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobdagi shaxslar bilan ishlash jarayonida noqonuniy cheklovlar va ortiqcha ma'muriy ta'sir choralarining oldini olishga xizmat qiladi.

Profilaktika inspektorlari va probatsiya xizmatining o'zaro hamkorligi mahalla instituti asosida amalga oshiriladi. "Mahalla yettiligi" tizimi doirasida mahalla raisi, profilaktika inspektorlari, probatsiya xizmati xodimlari va boshqa mas'ul shaxslar ijtimoiy profilaktika tadbirlarini muvofiqlashtiradi. Ushbu hamkorlikning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

Profilaktika inspektorlari mahalladagi xavfli shaxslar va ijtimoiy muammolar to'g'risida ma'lumotlarni probatsiya xizmatiga taqdim etadi, bu esa nazorat va moslashtirish jarayonlarini samaraliroq qiladi.

Mahalladagi jinoyatchilikning oldini olish uchun birlashgan reydlar, seminarlar va aholi bilan suhbatlar tashkil etiladi.

Ikki tuzilma birgalikda muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar, voyaga yetmaganlar va boshqa xavf guruhidagi shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatadi

O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi ilmiy asosda rivojlantirilmoqda. Jinoyat sodir etilgan mahallalarda ilmiy tashkilotlar va ta'lim muassasalari tomonidan o'rganishlar o'tkaziladi, bu esa kriminogen vaziyatning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari, "E-ma'muriy ish" tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarliklar ro'yxatga olinadi va avtomatik ijtimoiy profilaktika xulosalari ijroga qaratiladi, bu esa tezkorlikni oshiradi.

Profilaktika inspektorlari va probatsiya xizmatining hamkorligi natijasida bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda:

Mahallalarda jinoyatchilik darajasining pasayishi;

Ijtimoiy;

Ajralish yoqasidagi oilalarning yarashtirilishi (53 mingdan ortiq oila);

Narkologik kasalliklarga chalingan va spirtli ichimlikka ruju quygan shaxslarga majburiy davolash tashkil qilinishi.

Biroq, muammolar ham mavjud, jumladan, kadrlar yetishmasligi va ba'zi hududlarda moddiy-texnik ta'minotning pastligi.

Shu bilan birgalikda, bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini, kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo'yish, respublikamizning chegara hududlarida mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash sohasida yuzaga kelgan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish shuningdek, aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni va boshqa axborotni qonun hujjatlarida va bitimlarda belgilangan tartibda o'zaro almashish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar bojxona komplekslari va bojxona postlari xodimlari bilan O'zbekiston Respublikasining bojxona kodeksi¹⁹ normalariga rioya qilgan holda, O'zbekiston Respublikasining (1997 yil 29 avgust) "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi qonunining 7-moddasiga asosan hamkorlikni amalga oshiradi.

Xuquqni muhofaza qiluvchi organlari o'zaro hamkorligining qonun darajasida tartibga solinganligi bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilsak, quyidagi qonunlarning ob'ekti doirasida mazkur bo'linmalar hamkorligi amalga oshirilishini kuzatishimiz

mumkin: Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi hamda 2000 yil 25 maydagi «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi qonunlari asosida, ayrim faoliyatlarni litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish tartibga solingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 4 yanvardagi "Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni bilan ushbu bo'linmalarining hududda fuqaroviy va xizmat qurollarining hamda ular o'q-dorilarining, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallar, shuningdek pirotexnika buyumlar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining muomalada bo'lishi sohasida hamkorligi amalga oshiriladi.

Favqulotda vaziyatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqarolar muhofazasi tadbirlarini amalga oshirishda IIO, Prokuratura, Davlat havfsizlik xizmati va Bojxona organlari bilan hamkorliklari O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonuni normalari bilan tartibga solingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuni terrorizmga qarshi kurashish, xususan uning oldini olish bo'yicha faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy manba bo'lib, bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlarining o'zaro hamkorligini belgilab beradi. Qonunning normalariga ko'ra, mazkur bo'linmalar o'rtasidagi hamkorlik ma'muriy hududlarda terrorizm va uning turli xil ko'rinishlariga qarshi kurashish, fuqarolarning diniy ibodat libosida yurishini oldini olish, diniy ekstremizm oqimi xayrixohi sifatida hisobda turuvchi shaxslar bilan umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlar majmuini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlarining bu boradagi hamkorligiga ushbu qonunning 6-moddasiga asosan, mahalliy davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar ko'maklashadi va zarur yordam beradi.

Mazkur qaror bo'yicha Ichki ishlar organlarining vakolatli davlat organlari bilan hamkorligi:

birinchidan, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini, ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish va bartaraf etishga;

ikkinchidan, huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish va fosh etish, tergov va suddan yashirib yurgan shaxslarni, shuningdek bedarak yo'qolgan fuqarolarni qidirishga;

uchinchidan, aholi bilan uning eng muhim muammolarini hal etish va ijtimoiy keskinlikni yumshatish masalalarida to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqotni yo'lga qo'yishga;

to'rtinchidan, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyati huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyatning samaradorligi, avvalo, uning tashkiliy-huquqiy asoslarining mukammalligi, amaldagi qonunchilik normalarining aniq va izchil tatbiq etilishi hamda profilaktika inspektorlarining vakolat va mas'uliyatlarining to'g'ri belgilanganligiga bog'liq ekani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, profilaktik hisobdagi shaxslar bilan ishlash jarayonida individual yondashuv, tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik ta'sir choralarini qo'llash, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish profilaktika ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur sohada ayrim tashkiliy-huquqiy muammolarning mavjudligi, jumladan, huquqiy mexanizmlarning amaliyotda bir xil qo'llanilmasligi hamda profilaktik hisob yuritish tartibining takomillashtirishga muhtojligi qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobdagi shaxslar bilan ishlash faoliyatini yanada takomillashtirish uchun qonunchilik bazasini modernizatsiya qilish, huquqiy normalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini aniqlashtirish, shuningdek, profilaktika inspektorlarining kasbiy tayyorgarligini va malakasini oshirish zarur hisoblanadi.

Bu esa o'z navbatida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini samarali rivojlantirishga va jamiyatda qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Таштемиров А. А., Комилов А. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

3. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.25 (2023): 32-40.

4. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 454-461.

5. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в

современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.

6. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.

7. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

8. Tashtemirov A., Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 62-67.

9. Tashtemirov A., Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iiolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 50-53.

10. Таштемиров А. А. и др. Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы //International scientific research conference. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 97-102.

11. Таштемиров, А. А. "Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2.10 (2022): 42-48.

12. Таштемиров, А. А. "Йулларда харакатланишни тартибга солишнинг ҳукукий жихатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти." siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali 1.2 (2022): 111-115.

13. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза-ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг асосий омили сифатида." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.21 (2023): 12-19.